

UDK: 619:616.24-002.5:636.7

*Turakhonov Makhmudkhoja Kholkhojayevich
Assistant at the Department of Animal Husbandry and Veterinary Medicine,
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies,
Andijan, Uzbekistan*

ТУБЕРКУЛЁЗ У СОБАК: МЕРЫ БИОБЕЗОПАСНОСТИ ПРИ СОДЕРЖАНИИ СОБАК В ДОМАШНИХ УСЛОВИЯХ

Аннотация: В данной статье приведены сведения о причинах распространения туберкулёза у собак, методах диагностики и профилактики заболевания. В ходе исследования проанализирована эффективность мер биобезопасности при содержании собак в домашних условиях. На основании полученных результатов сформулированы рекомендации для ветеринарной практики.

Ключевые слова: туберкулёт у собак, биобезопасность, зоонозные заболевания, ветеринарная профилактика.

*To‘raxonov Maxmudxo‘ja Xolxo‘jayevich
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, “Chorvachilik
va veterinariya meditsinasi” kafedrasi assistenti
O‘zbekiston, Andijon*

ITLARDA TUBERKULYOZ: ITLARNI UY SHAROITIDA SAQLASHDA BIOXAVFSIZLIK CHORALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada itlarda tuberkulyoz kasalligining tarqalish sabablari, diagnostikasi va profilaktikasi bo‘yicha ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqot davomida uy sharoitida itlarni saqlashda bioxavfsizlik choralarining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida veterinariya amaliyoti uchun tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: itlarda tuberkulyoz, bioxavfsizlik, zoonoz kasalliklar, veterinariya profilaktikasi.

Kirish. Itlarda tuberkulyoz (*Mycobacterium tuberculosis*) kam uchraydigan, ammo xavfli zoonoz kasalliklardan biridir [1]. Ushbu kasallik nafaqat hayvonlar salomatligiga, balki insonlarga ham tahdid solishi mumkin. Itlar odatda infektsiyani bemor hayvonlar yoki insonlar bilan muloqot orqali yuqtiradi [2]. Bunday kasallikning oldini olish uchun bioxavfsizlik choralarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Itlar tuberkulyozi haqida ilk bor XIX asr oxirlarida ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu kasallik odatda sigirlar orasida keng tarqalgan *Mycobacterium bovis* shtammi orqali yuqadi, ammo itlar insonlarda uchraydigan *Mycobacterium tuberculosis* shtammi bilan ham zararlanishi mumkin [3]. Kasallikning tarqalish omillari orasida nosog'lom hayvonlar bilan aloqa, ifloslangan oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena talablariga rioya qilmaslik asosiy o'rinni tutadi [4].

Veterinariya amaliyotida itlarda tuberkulyoz tashxisi qo'yish qiyin kechishi mumkin, chunki kasallikning klinik belgilari ko'pincha boshqa nafas yo'llari kasalliklari bilan chalkashib ketadi. Shu sababli, aniq tashxis qo'yish uchun laboratoriya tahlillari va radiografik tekshiruvlar muhim rol o'ynaydi [5].

Zoonoz kasallik sifatida tuberkulyoz it egalari salomatligi uchun ham xavf tug'diradi. Xususan, immuniteti zaif bo'lgan insonlar kasallikni yuqtirishga moyilroq bo'ladi [6]. Shuning uchun itlarni uy sharoitida saqlashda bioxavfsizlik choralar nafaqat hayvonlarning, balki ularning egalari sog'lig'ini himoya qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola aynan shunday choralarini ilmiy asosda baholashga bag'ishlangan.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Andijon viloyatidagi uy sharoitida saqlanayotgan 50 bosh it misolida olib borildi. Tadqiqot davomida bir nechta zamonaviy va an'anaviy usullar uyg'unlashtirilgan holda qo'llanildi. Avvalo, klinik tekshiruvlar amalga oshirilib, hayvonlarning umumiyoq sog'ligi, tana harorati, nafas olish faoliyati hamda limfa tugunlarining holati baholandi. Shundan so'ng, laboratoriya tahlillari o'tkazilib, itlardan olingan qon va balg'am

namunalarida mikobakteriyalar mavjudligi aniqlashga qaratilgan diagnostika ishlari bajarildi. Bunda yuqori aniqlikka ega bo‘lgan polimeraza zanjir reaksiya (PZR) usulidan foydalanildi. O‘pka to‘qimalarining zararlanish darajasini baholash maqsadida ko‘krak qafasi rentgenografiyasi orqali radiografik tekshiruvlar olib borildi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida it egalari bilan so‘rovnomalar tashkil etilib, bioxavfsizlik choralariga rioya qilinishi holati yuzasidan ma'lumotlar to‘plandi. Shu tarzda, tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borildi va sog‘liqni saqlash hamda bioxavfsizlik bo‘yicha muhim ma'lumotlar olinishiga zamin yaratdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari itlarda tuberkulyoz aniqlash va bioxavfsizlik choralarining ahamiyatini ochib berdi:

Klinik tekshiruv: 50 ta it orasidan 5 tasida tuberkulyozga gumon qilingan alomatlar aniqlandi. Ushbu alomatlar orasida ishtahaning pasayishi, holsizlik, vazn yo'qotish, nafas qisishi va yo'tal kuzatildi. Ushbu belgilar tuberkulyozning subklinika bosqichida ham namoyon bo'lishi mumkinligi aniqlangan.

Laboratoriya tahlillari: Qon va balg'am namunalari asosida o'tkazilgan PZR tahlillarida 3 ta itda *Mycobacterium tuberculosis* aniqlangan. Bundan tashqari, serologik testlar ham qo'llanilib, immun javob aniqlash orqali kasallikni aniqlash imkoniyati oshirildi.

Radiografik tekshiruv: Tuberkulyozga gumon qilingan 5 ta itdan 3 tasida ko'krak qafasi rentgenografiyasi natijasida o'pka to'qimalarida infiltratsiya va fibroz o'zgarishlari qayd etildi.

So‘rovnomalar natijalari: Egalar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida, bioxavfsizlik choralariga to'liq rioxva qilinmagan uy xo'jaliklarida kasallik xavfi yuqori ekani kuzatildi. Xususan, itlar bemor hayvonlar bilan nazoratsiz aloqada bo'lgan uy xo'jaliklarida tuberkulyoz xavfi 3 baravar yuqoriligi aniqlandi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, veterinariya nazorati ostida muntazam tekshiruvlar o'tkazish, itlar yashaydigan joylarni dezinfeksiya qilish va gigiyenik

talablarni bajarish orqali tuberkulyozning tarqalishini sezilarli darajada kamaytirish mumkin .

Munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, itlarda tuberkulyozning oldini olish uchun muntazam veterinariya nazorati va bioxavfsizlik choralariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Kasallikning zoonoz tabiatga egaligi sababli nafaqat hayvonlar, balki insonlar salomatligini ham himoya qilish maqsadida profilaktik choralarни qat’iy amalga oshirish zarur. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar veterinariya amaliyotida qo‘llaniladigan ilg‘or usullar samaradorligini tasdiqladi.

Uy sharoitida quyidagi bioxavfsizlik choralarini eng samarali deb topildi:

Itlar yashaydigan joylarni muntazam ravishda dezinfeksiya qilish tuberkulyoz mikobakteriyalarining muhitda saqlanib qolishini oldini oladi. Chorva mollari va uy hayvonlari yashaydigan joylarni dezinfektsiyalash uchun kvaterner ammoniy birikmalari, xlorli eritmalar va formaldegid asosidagi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Itlarning oziq-ovqat va suv manbalarining gigiyenasini ta'minlash kasallik tarqalishining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, idishlarni muntazam yuvish, ichimlik suvini yangilash va itlar ovqatlanadigan joylarni toza saqlash zarur. Itlarni boshqa hayvonlar bilan nazoratsiz aloqasini cheklash orqali kasallikning tarqalish xavfini kamaytirish mumkin. Tashqarida erkin yuradigan yoki boshqa hayvonlar bilan aloqa qiladigan itlarda infektsiyalanish xavfi yuqori bo‘ladi. Itlarning yillik tibbiy ko‘riklardan muntazam o‘tishi kasallikni erta bosqichda aniqlash va davolash imkonini beradi. PZR diagnostikasi hamda tuberkulin sinovlari veterinariya amaliyotida tuberkulyozni aniqlash uchun eng ishonchli usullardan hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompleks profilaktik choralar nafaqat itlarni, balki ularning egalari va boshqa uy hayvonlarini ham tuberkulyoz infeksiyasidan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Uy sharoitida itlarni saqlashda bioxavfsizlik choralariga rioya qilish tuberkulyoz kabi xavfli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muntazam profilaktika, sog'liqni nazorat qilish va gigiyena qoidalariga amal qilish orqali nafaqat itlar, balki ularning egalari salomatligini ham samarali himoya qilish mumkin.

Mikobakteriyalar atrof-muhitda uzoq muddat saqlanib qolishi sababli uy sharoitida itlarni parvarishlashda quyidagi kompleks choralarga amal qilish zarur: itlar yashaydigan joylarni muntazam dezinfeksiya qilish; oziq-ovqat va ichimlik suvining gigiyenasini ta'minlash; itlarni boshqa hayvonlar bilan nazoratsiz aloqasidan saqlash; veterinariya ko'riklaridan muntazam o'tib turish.

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, bioxavfsizlik choralari to'liq bajarilgan uy xo'jaliklarida itlarda tuberkulyoz tarqalish xavfi sezilarli darajada kamayadi [10].

Adabiyotlar

1. Иванов, С. В. Туберкулез у домашних животных: диагностика, профилактика и лечение. – Москва: Колос, 2018.
2. Петров, А. Н. Зоонозные инфекции у собак: современные методы диагностики и профилактики. – Санкт-Петербург: Лань, 2019.
3. Smith, B. Tuberculosis in Companion Animals: Emerging Challenges. – London: Academic Press, 2020.
4. World Health Organization. Zoonotic Tuberculosis: A Roadmap to End TB. – Geneva: WHO, 2017.
5. Кузнецов, И. П. Методы лабораторной диагностики туберкулеза у животных. – Новосибирск: Наука, 2016.
6. Radostits, O. M. Veterinary Medicine: A Textbook of the Diseases of Cattle, Horses, Sheep, Pigs, and Goats. – 11th ed. – Elsevier, 2017.
7. Brown, C. Tuberculosis in Dogs and Cats: Clinical Perspectives. – New York: Springer, 2018.

8. Иванова, Л. Н. Ветеринарная микробиология. – Москва: Агронauка, 2015.